
Rishton tumani hokimi S. Solievning 25 oktyabr - Ichki ishlar xodimlari kuni munosabati bilan bayram tabrigi

Hurmatli Ichki ishlar organlari xodimlari!

Avvalo, siz, azizlarni bugungi kasb bayramingiz hamda O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tashkil etilganining 31 yilligi bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

Ushbu qutlug' ayyomda o'z hayotini el-yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini asrashdek ezgu va olijanob ishga bag'ishlagan sizlar kabi mard va sadoqatli, haqiqiy vatanparvar insonlar sha'niga samimiy tilaklarimizni bildiramiz. Sharafli va shu bilan birga mas'uliyatli bo'lgan kasbingizda muvaffaqiyatlar va oilaviy xotirjamlik tilayman. Yurt farovonligi va xalqimiz tinchligi yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan siz kabi ichki ishlar organlari xodimlarining mehnatlarini har qancha e'tirof etsak oz. Vatanimiz buguni va ertasi uchun mas'ul bo'lgan sizdek matonat egalari bor ekan xalqimiz hamisha xotirjam yashaydi.

Sizday sharafli kasb egalarining jamiyat hayotida tutgan o'rni xususida so'z borganda, turli jabhalarda qo'lga kiritilayotgan marralar bilan bir qatorda, joylarda uchrab turgan va islohotlarning borishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ayrim muammo va kamchiliklarga jamoatchilik e'tiborini qaratish, ularni bartaraf etishga doir sa'y-harakatlarda tashabbuskorlik va jonkuyarligingizni alohida ta'kidlamoq lozim.

Bugun mamlakatimiz ichki ishlar organlari tizimi zamon talablari darajasida takomillashtirilayotgani hamda soha xodimlarining o'z zimmasiga yuklangan vazifalarni fidoyilik bilan bajarayotgani alohida ko'rinib turibdi. Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik hamda el va elatlar orasidagi totuvlik sabab xalqimiz ertangi kunga ishonch bilan boqmoqda. Bu ham shubhasiz, ichki ishlar organlari hodimlarining fidoyi xizmatlari natijasi desam xato bo'lmaydi.

Aziz osoyishtalik posbonlari!

Yurt istiqboli yo'lida fidokorona xizmat qilib, uning tinchligi va osoyishtaligiga munosib hissa qo'shishdan charchamang.

Halqimiz sizning timsolingizda jipslikni, har qanday to'siq oldida ham o'z ontidan qaytmaydigan, burchiga sadoqat bilan xizmat qiladigan oliyjanob insonni ko'radi.

Bu borada o'zining bor bilim va tajribasini, kuch va g'ayratini halq manfaatlarini uchun sarf etayotgan, Vatanimiz tinchligini bardavom bo'lishida o'z oromidan kechib, tunu kun xizmat qilayotgan siz kabi mard o'g'lonlar va shijoatli ayollarning mehnati tahsinga loyiq.

Barchalaringizga sihat-salomatlik, xotirjamlik, baxt-sodat, xonadonlaringizga fayzu baraka, farovonlik tilayman.

Bayramingiz muborak bo'lsin!

2022-10-25 08:24:28